
Farg'ona shahridagi mahallalarda madaniy tadbir davom etmoqda

"Guliston" mahalla fuqarolar yig'inida ham Navro'z umumxalq bayrami munosabati bilan madaniy tadbir o'tkazildi. Unda mahalla faollari, ko'chaboshilar hamda keksa-nuroniylar ishtirok etishdi.

Tadbirda o'tgan yil davomida mahalla hududida amalga oshirilgan ishlar tahlil qilindi. Joriy yilda belgilangan rejalar bo'yicha takliflar kiritildi.

Bayramona dasturxon yozilib, jamoat ishlarida faol bo'lgan fuqarolarga esdalik sovg'alari topshirildi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati
2023-03-11 16:13:16